

O'QUVCHILARGA INDIVIDUAL YONDASHUVNING NAZARIYADAGI AHVOLI TAHLILI

Abduqaxorova Muslimaxon Mirzabahrom qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Magistratura bo'limi

Tasviriy san'at yo'nalishi 1–bosqich magistranti.

abduqahhorovamuslima11@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20750240>

Annotatsiya. Maqolada o'quvchilarga individual yondashuvning nazariy asoslari hamda uning tasviriy san'at ta'limidagi o'rni tahlil qilinadi. Ta'lim jarayonida har bir o'quvchining yosh, psixologik va individual xususiyatlarini hisobga olishning pedagogik ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, tasviriy san'at darslarida individual yondashuvni qo'llash orqali o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil fikrlashini shakllantirish va ta'lim samaradorligini oshirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot davomida individual yondashuvning nazariy qarashlari tahlil qilinib, uning zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Individual yondashuv, tasviriy san'at ta'limi, o'quvchi shaxsi, pedagogik jarayon, ijodiy qobiliyat, estetik tarbiya, differensial ta'lim, individual xususiyatlar, ta'lim samaradorligi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, ijodiy faoliyat, pedagogik texnologiyalar.

O'zbek xalqi o'zining tasviriy, amaliy, me'morchilik san'ati bilan faxrlansa arziydi. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev xalqimizning ana shunday boy tarixiy, ilmiy, ma'naviy merosini har tomonlama o'rganish, jahon afkor ommasiga keng tanishtirish, o'lkamiz rassom va xattotlarini dunyoga tanitish va turizm masalasida “Bu maskanga tashrif buyuruvchilar bir vaqtning o'zida... Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzaxxib kabi musavvirlarning bebaho merosidan namunalar, ular tavallud topgan va faoliyat ko'rsatgan tarixiy shaharlar manzaralari turli noyob eksponatlar orqali aks ettirildi” deb ta'kidladi. Chunki, O'zbekiston hududida eramizdan avval ham tasviriy san'atning rangtasvir, haykaltaroshlik, me'morchilik turlari nihoyatda rivojlandi, ularning namunalari Varaxsha, Afrosiyob, Xalchayon, Tuproqqal'a, Bolalik tepa, Ayrtom, Dalvarzin tepa, Fayoz tepa, Qo'yqirilgan qal'a, Ajina tepa, Teshik qal'a va boshqa bir qator joylardan topilgan.

O'quvchilarga individual yondashuvning asoslari yangi yoki yaqin 100-200 yil davomida paydo bo'lgan jarayon emas, u kishilik jamiyati, aniqrog'i, ibtidoiy jamoa paydo bo'lgan davrdan boshlangan, desak to'g'riroq bo'ladi. Chunki jamiyat taraqqiyoti bevosita kattalaming o'z tajribasi va bilimlarini yosh avlodga turli yo'llar bilan o'tkazish jarayonida ro'y beradi. Bu jarayon o'sha davrlarda sinf-dars tizimida bo'lmasa-da, har qalay kundalik turmushda amalga oshirilgani hammaga ma'lum. U mehnat, oila munosabatlari, ov, tarbiya sohalarida, yoshlarning yoshi, qobiliyati, jinsi, qiziqishlari kabi xususiyatlarini hisobga olgan holda bo'lganligi hammaga ma'lum. Bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olib ularga hunar o'rgatganlar, ta'lim va tarbiya mazmunini belgilaganlar. Ta'lim-tarbiyaga bunday yondashuv qadimgi Misrda, O'rta Osiyoda eramizdan avvalgi VI-V asrlarda, bo'lganligi rasmiy ma'lumotlardan bizga ma'lum- Hatto uzoq qadimda o'quvchilarning badiiy hunarlarni o'zlashtirishi Qadimgi Gretsiyada, so'ng bir qator Evropa davlatlari Uyg'onish davrida o'quvchilarga individual yondashuv masalasi pedagoglarning alohida e'tiborini tortdi. Chunki u davrlarda ustozning yordamchi va shogirdi bo'lganligi uchun,

o'quvchi-shogird ustozining badiiy asarlarni yaratishdagi texnikasi, uslubini o'ziga bevosita qabul qilgan.

Buni Temuriylar davri miniatyura maktablari, shu davrlarda yashab, ijod etgan tasviriy san'at ustalari va ular shogirdlarining faoliyatlarida ham ko'rishimiz mumkin. Hirotida shakllangan san'at maktabida Xirotlilik Mirak naqqosh Kamoliddin Behzodga ustozlik qilgani, unga miniatyura rangtasviri sirlarini o'rgatgani haqida ma'lumotlar bor. Shu maktabning davomchisi sifatida Kamoliddin Behzod o'nlab musavvirlarga ustozlik qilgan, deydi professor Orif Usmonov o'zining "Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi" nomli kitobida. U erda Kamoliddin Behzod o'z atrofiga o'nlab iste'dodli yoshlarini to'plagan, ularga san'atning sir-asrorlarini o'rgatgani va Tabrizda Sulton Muhammad, Mir Ali, Sulton Muhammad, Abdulla Sheroziy, Mirzo Amir, Mahmud Muzaxxib, Oqo Mirak, Muzaffar Ali, Sulion Muhammad Nur, Rizo Abbosi, Shomuxammad Nishopuriy, Yusuf Mullo, Maviono Yoriy, Hasan Bag'dodiy, Darvesh Muhammad, Mir Said Ali, Qosim Ali, Xeraviy singari o'nlab iste'dodli musavvirlarni tarbiyalaganligini yozadi. Shogirdlari Behzodning tasviriy san'at uslubini davom etirib, miniatyura va xattotlik san'ati ravnaqiga hissa qo'shib, o'zlaridan keyin miniatyura maktablariga asos solib yuzlab musavvirlar yetishib chiqishiga zamin yaratganalar. XVII-XIX aslarda ijod qilgan tasviriy san'at ustalaridan Muhammad Niuqim, Alimad Kalla, Ahmad Donish, Mulla Husniddin, Mulla Ortiq Rahmatiy, ibrohim Davron kabi rassomlar faoliyati ustoz-shogird masalasida e'tiborga molikdir. Ustoz-shogird o'rtasidagi munosabatlarni biz tarixiy manbalarga tayanib o'rganadigan bo'lsak, u davrlarda tasviriy san'at tahlili o'qitishda rassom ustozlarning badiiy ustaxonalarida o'quvchi-shogirdlarga ta'lim-tarbiya berish aniq belgilangan qonun-qoidalar asosida olib borilgan. Bu jarayonda shogirdlarni jamoa bo'lib o'qitish, ular bilan birga va yakka tartibda ishlash muhimi hisoblangan.

O'sha davrlarda bo'lajak rassomlarni o'qitish ustozning yengil topshiriqlaridan boshlanardi. Masalan, o'quvchi avvaliga levkasni tayyorlash (gips, elim, va suv qorishmasi), asosga qoplama (grunt)ni surtish (mato yoki yog'ochga), freskalar uchun shtukaturkani tayyorlash, bo'yoqlarni surtish bilan shug'ullangan. Faqat shundan so'ng ustoz qobiliyatli va tayyorgarlik ko'rgan shogirdlarini asta-sekin rangtasvir ishlariga yaqinlashtirgan. Avvaliga o'quvchining individual xususiyatlaridan kelib chiqib, kartinadagi manzara, seyinchalik kiyim lavhasini ishlash topshirilgan. Keyinchalik ustozning rangtasvir asaridan nusxa ko'chirishga ruhsat berilgan. Ana shulardan keyin ustoz o'z shogirdiga mustaqil o'zining kartinasini yaratishiga ruxsat bergan. O'quvchining individualligi bartaraf etilmagan, aksincha ustozidan o'rganilgan metodika asosida o'zining qobiliyatlari takomillashtirilgan.

XVII-XVIII asrlarga kelib Yevropada davlat badiiy akademiyalari, xususi rassom ustaxonalariga qaraganda ancha ko'paydi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarga individual yondashuv muammosi katta ahamiyat kasb etdi, ya'ni tasviriy san'atning turlarini o'qitish dars tizimi sifatida namoyon bo'ldi, bunda rassom-pedagoglarning ish jarayonida asosiy faktor vaqtning reglamentlashtirilishi edi. Individual yondashuv masalasi asosan, ikki yo'nalishda olib borilar edi: birinchisi, masalani pedagog-rassom amaliy namoyon etib, og'zaki tushuntirib berar, ikkinchisi o'quvchiga amaliy ko'rsatilmasdan faqat og'zaki tushuntirilar va izohlab berilar edi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bu ikki yo'nalishni bir-biridan ajratib yoki qarama-qarshi qo'yish mumkin

emas. Chunki u yoki bu yondashuvda o'quvchining qobiliyati va layoqati hisobga olinib kelingan hamda tushuntirilayotgan materialning murakkabligiga bog'liq bo'lgan.

XX asr boshlarida bolalar tasviriy ijodi borasida biogenetik nazariya yuzaga keldi. Bu borada nemis Olimi G.Kershenshteyner, rus san'atshunosi A.Bakushinskiy, amerikalik J.Dyupyular faollik ko'rsatdilar. Ularning fikriga qaraganda bolalar badiiy ijodiga aralashmaslik kerak. Ular erkin ijod qilishlari lozim. Buyuk rassom-pedagoglar A. Sapojnikov D.N. Kordovskiy, P.P. Chistyakov va boshqalar o'quvchilar bilan individual ishlash, uni tatbiq etish jarayoni bo'yicha qisman o'zlarini ilmiy asoslangan tavsiyalarini qoldirishgan. Rossiyada XX asrda "Tasviriy san'at" o'quv predmetining o'qitilishini yaxshilashda bir qator pedagog olim va metodistlar faollik ko'rsatdilar. Natijada "Izobrazitelnoe iskusstvo" darsliklaridan tashqari ko'plab ilmiy-metodik va metodik adabiyotlar nashr etildi. Bunda A.V.Bakushinskiy, E.V.Shoroxov, V.S.Kuzin, G.K.Beda, N.N.Rostovtsev, S.A.Amanjolov kabilar samarali mehnat qildilar. Respublikamiz umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilariga tasviriy san'at sir-asrorlarini o'rgatishda, tasviriy san'at o'qitish metodikasi bo'yicha o'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini oshirishda O'. Tansiqboev, I. Ikromov, Ch. Ahmarov, A.Abdullaev, M.Nabiev, R.Hasanov, G'.Abdurahmonov, N.Abdullaev, M.Saidov, A.Mirzaev, B.Oripovhodir B.Boymetov, S.Bulatov, N.Tolipov, H.Egamov, S.Abdirasilov, A.Sulaymonovlarning ilmiy metodik ishlari diqqatga sazovordir. Tasviriy san'at fani bo'yicha o'quvchilarni tabaqalashtirib o'qitish, uning respublikamiz ta'lim tizimiga mos keladigan dastlabki ilmiy-nazariy asoslarining ilk kurtaklarini pedagogika fanlari doktori, professor R. Hasanov respublikamiz matbuot va ro'znomalarida chop etilgan qator maqolalari misolida aks ettirdi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlashimiz kerakki, mutaxassislar tomonidan tabaqalashtirilgan ta'lim va individual yondashuv printsiplarining nazariy asoslari bilan maxsus muammo sifatida shug'ullanish XX asrning boshlariga to'g'ri keldi.

Individualizatsiya deganda o'zi individual o'quv jarayonini tashkil etishda, ta'lim oluvchilarning rivojlanish ko'rsatgichi ularning qobiliyatlariga qarab o'quv yo'llari, usullari, shakllari tanlab olinishi tushuniladi. Tabaqalashtirilgan ta'limning bunday turida sinfdagi o'quvchilar bilan individual ish olib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. — T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. — 92 b.
- 2 O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi - T.: Lex.uz. 2019.
- 3 O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" // Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. — T.: Sharq nashriyot matbaa-kontserni. 1997. — 61 b.
- 4 Tasviriy san'at. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. - T.: Sharq. 1999.-28 b.

- 5 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 Yil 15 fevraldagi “2016—2030 yillarga mo‘ljallangan “Barqaror rivojlanish maqsadlari”ni O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirish to‘g‘risida”gi 111-f-sonli Farmoyishi.